



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 28-noyabr, № 249 (9144)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



YEVROPA ITTIFOQI BILAN SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSIYAVIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Yevropa Ittifoqining Xalqaro sherikliklar bo‘yicha komissari Yozef Sikela hamda Kengayish masalalari bo‘yicha komissari Marta Kos boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni joriy yil oktabr oyida Bryusselga oliy darajadagi tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish orqali rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Yevropa Ittifoqi vakillari O‘zbekiston Prezidentiga Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa Komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayenning samimiy salomlarini yetkazdi.

O‘zbekiston yetakchisi yevrokomissarlarni Toshkentda “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” uchinchi iqtisodiy forumi va Transkaspiy transport yo‘lagi hamda o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha investorlar forumi

muvaffaqiyatli o‘tkazilgani, yakunda mintaqaviy miqyosdagi bir qator yangi qo‘shma loyihalar ishga tushirilgani bilan tabrikladi.

O‘zbekiston – Yevropa munosabatlari jadal rivojlanib borayotgani, ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikning yangi keng qamrovli kun tartibi shakllanganini mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bu yil Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (KSHHB) imzolandi, Samarqand va Bryusselda sammitlar bo‘lib o‘tdi, O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi yuzasidan Yevropa Ittifoqi bilan muzokaralar yakunlandi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash qariyb 7 foizga o‘sd. KSHHBning

amaliyotga joriy etilishi savdo hajmi va investitsiyalar oqimining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Savdoni kengaytirish va diversifikatsiya qilish uchun hamkorlikning institutsional mexanizmlarini yanada takomillashtirish, sanoat kooperatsiyasi, transport, raqamlashtirish, muhim minerallar, energetika, sog‘liqni saqlash va boshqa ustuvor sohalarida hamda yangi qo‘shma investitsiya loyihalarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI FRANSIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Transkaspiy transport yo‘lagi bo‘yicha investorlar forumida ishtirok etish uchun Toshkentga kelgan Fransiya Respublikasi transport vaziri Filipp Tabaroni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Joriy yil mart oyida Parijga amalga oshirilgan oliy darajadagi

tarixiy tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi strategik sheriklik, ayniqsa, transport-logistika sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuvda fuqarolik

aviatsiyasida aloqalarni kengaytirish, transport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, shu jumladan, yaqinda tashkil etilgan O‘zbekiston – Fransiya universiteti imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratildi.

YOSHLARGA E’TIBORNING YORQIN IFODASI

Toshkent xalqaro aeroportidagi muhit odatdagidan boshqacha. Bu yerda yurtimiz sport sha’ni uchun kurashib, jahonni lol qoldirgan yosh qahramon – FIDE Jahon kubogi chempioni Javohir Sindorovni kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi. Aeroportdagi ko‘tarinki ruh, odamlarning yuzidagi quvonch, qo‘llaridagi guldastalar – bularning bari yurtimizda shaxmatga, yoshlar sportiga katta hurmat va e’tiborning yorqin ifodasidir. Ayniqsa, farzandlarini qo‘llaridan yetaklab kelgan ot-a-onalar nigohidagi faxr-iftixor dillarga yanada iqlik bag‘ishlaydi.

Shukuh

Hindistonning Goa shahrida 30-oktabr – 27-noyabr kunlari o‘tkazilgan nufuzli “FIDE Jahon kubogi – 2025” musobaqasida dunyoning 89 mamlakatidan kelgan 206 nafar kuchli shaxmatchi qatnashdi. Shunday mohir raqiblar orasida Javohir Sindorov chempionlikni qo‘lga kiritib, O‘zbekiston nomini yana bir karra dunyoga tanitdi. Uning g‘alabasi mehnat, iroda, iste’dod va Vatanga sodiqlikning yorqin namunasi bo‘ldi. Toshkentga qaytgan yosh chempionni kutib olish marosimi

nihoyatda tantanali o‘tdi. Tadbirida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, Sport vaziri Adham Ikramov, Milliy olimpiya qo‘mitasi rahbariyati, Yoshlar ishlari agentligi mas’ullari, rasmiylar, sportchining yaqinlari hamda keng jamoatchilik qatnashdi.

Marosimda Prezidentimizning Javohir Sindorovga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvonini berish to‘g‘risidagi Farmoni o‘qib eshittirildi.

Yuksak unvon Javohirning shaxmat rivoji va uni ommalashtirishga qo‘shgan hissasi, xalqimiz oldidagi



Ажмал МУҲАММАДОВ олган сурат.

fidoiyligi, jasorati va yuksak mahoratining e’tirofidir. Uning mana shunday g‘alabasi mamlakatimiz nufuzini oshirish bilan minglab yoshlar uchun ham ilhom manbaiga aylandi. Shu bilan birga, chempion Prezident sovg‘asi sifatida 3 xonali

xonadon va 123 million 600 ming so‘m pul mukofoti bilan taqdirlandi. Uning murabbiyi Roman Vidonyak esa 61 million 800 ming so‘m pul mukofotiga sazovor bo‘ldi. Bu mukofotlar yurtimizda iste’dod va mehnatning qadrlanishidan dalolat.

Tadbir davomida shoirlar tomonidan Javohirning g‘alabasiga bag‘ishlab yozilgan she’rlar o‘qildi. Bu esa tantananing ruhini yanada ko‘tardi va iftixor tuyg‘ularini mustahkamladi.

Musobaqaning umumiy mukofot jamg‘armasi 2 million AQSH dollarini tashkil etgani, shuningdek, 1 – 3-o‘rin sohiblari 2026-yilda bo‘lib o‘tadigan shaxmat toji uchun Da’vogarlar turnirida qatnashish huquqini qo‘lga kiritgani yosh grossmeyerimiz muvaffaqiyatining naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi.

Tadbirida tig‘iz vaqt bo‘lishiga qaramay zamonamizning yosh qahramoni bilan shukhtalashib, uning taassurotlarini yozib olishga muvaffaq bo‘ldik.



2

YANGI TAYINLANGAN XORIJIY ELCHILARGA ISHONCH BILDIRILDI

27-noyabr kuni mamlakatimizga yangi tayinlangan xorijiy elchilar tomonidan ishonch yorliqlarini topshirishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev favqulodda va muxtor elchilar – Gretsiya Respublikasidan Paraskevi Seveleki, Indoneziya Respublikasidan Siti Ruhayni Juxayatin, Latviya Respublikasidan Girts Yaunzems, Fransiya Respublikasidan Valid Fuk, Rossiya Federatsiyasidan Aleksey Yexov, Yaponiyadan Kendzi Xirata va Tojikiston Respublikasidan Nasriddin Ismatullodan ishonch yorliqlarini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari Yangi O‘zbekistonda o‘z missiyasini boshlayotgan diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini samimiy tabrikladi. Hozirgi beqaror davrda,

butun dunyoda murakkab geosiyosiy va iqtisodiy muammolar keskinlashib borayotgan bir paytda diplomatlarning ishi tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani ta’kidlandi.

– Sizlar bir necha oydan buyon yurtimizda bo‘lib bugungi kunda mamlakatimiz qanday jadal o‘zgarishlar ruhi bilan yashayotganiga va jahon diplomatiya markazlaridan biriga aylanib borayotganiga shaxsan guvoh bo‘lyapsiz, – dedi Prezidentimiz.

Xususan, joriy yilda Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashi yig‘ilishi, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley

assambleyasi, “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti va Xalqaro iqlim forumi, YUNESKO Bosh konferensiyasining tarixiy sessiyasi hamda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining sammiti muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Bu yil mamlakatimiz Global barqaror rivojlanish maqsadlari indeksida 19 pog‘onaga ko‘tarildi va oxirgi 10 yil ichida eng yuqori natijalarga erishgan beshta davlat qatoriga kirdi. Keyingi sakkiz yilda iqtisodiyotimiz ikki baravardan ko‘proqqa oshdi.

Kambag‘allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha pasaydi.

Ochiqlik siyosati natijasida qariyb 100 ta mamlakat uchun vizasiz rejim joriy etildi. Eksport geografiyasi doimiy ravishda kengayib bormoqda. Bu yil tashqi savdo aylanmasi tarixda birinchi marta 66 milliard dollardan oshdi. Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 39 milliard dollarga yetdi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishini faol qo‘llab-quvvatlagani uchun elchilar vakillik qilayotgan mamlakatlar hukumatlariga alohida minnatdorlik bildirdi.

(Davomi 2-betda).



STATISTIKA ISHLARI SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining hisoboti bilan tanishdi.

Joriy yil fevral oyida “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilingan edi. Farmonga ko‘ra Prezident huzuridagi Statistika agentligi Milliy statistika qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etildi hamda statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

Yig‘ilishda o‘tgan davrda amalga oshirilgan ishlar ko‘rib chiqildi.

Jumladan, idoralararo ma‘lumot almashinuvi kengaytirilib, 60 ta integratsiya joriy etilgani natijasida hisobot yuklamasi 27 foizga qisqardi. Shu jumladan, soliq organlarining onlayn-kassa ma‘lumotlari, elektr energiyasi va tabiiy gaz iste‘moli, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va hosil to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qabul qilish yo‘lga qo‘yildi.

Yig‘ilishda yalpi milliy mahsulotning nominal hajmini hisoblashni yaxshilash bo‘yicha qilingan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Bozor xizmatlari, qurilish, qishloq xo‘jaligi, sanoat va byudjet xarajatlarini statistika bilan yanada kengroq qamrab olish natijasida qo‘shimcha 81 trillion so‘m qo‘shilgan qiymat inobatga olinib, 2024-yil yukunlari bo‘yicha YAIM hajmi 115 milliard dollardan 121,4 milliard dollarga oshdi.

Shu bilan birga, “yashirin iqtisodiyot” ulushi 2017-yildagi 50 foizdan 2024-yilda 35 foizgacha kamaygani ta’kidlandi.

Yaqin istiqbolda yana 79 trillion so‘mlik norasmiy iqtisodiyotni statistika bilan qamrab olish, “yashirin iqtisodiyot” ulushini 29 foizgacha tushirish imkoniyati mavjudligi ma‘lum qilindi.

Prezidentimiz global bozorda elektron savdo hajmi jadal o‘sayotganini ta’kidladi. Mamlakatimizda bu sohaning o‘lish sur‘atlari 9 – 11 foizga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalari va masofaviy xizmatlar, frilans kabi yangi sohalar tez rivojlanayapti. Milliy statistika tizimi oldida bu sohalarini ham qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar turgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Iste‘mol narxlar indeksini tuzishda ma‘lumotlarni qo‘lda yig‘ish amaliyotidan voz kechib, AT va sun‘iy intellekt texnologiyalariga bosqichma-bosqich o‘tish zarurligi ta’kidlandi.

Milliy statistikaning zamonaviy va xalqaro darajada tan olinadigan tizimga aylantirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Xalqaro “Deloitte” konsalting kompaniyasi tomonidan 23 ta tashabbus va 70 ta loyiha ishlab chiqilgani aytiladi. Ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish statistikaning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi. Bundan tashqari, Jahon banki bilan birgalikda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda statistikaning rivojlantirish milliy strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Kelgusi yil yanvar oyida boshlanadigan aholini ro‘yxatga olish ishlariga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi.

Hozirgacha 9008 ta mahalla bo‘yicha tashkiliy rejalar tasdiqlandi, ro‘yxatga

olishda ishtirok etuvchi 60 ming nafardan ziyod “mahalla yettilligi” vakillari va mas’ul xodimlari uchun maxsus o‘quv kurslari o‘tkazildi.

Ro‘yxatga olish elektron shaklda – maxsus portal orqali o‘tkaziladi. Ma‘lumotlar portalga ro‘yxatga oluvchilar tomonidan uyma-uy yurib, planshet qurilmalari yordamida kiritiladi. Jarayonlar geoaxborot tizimi orqali monitoring qilib boriladi. Buning uchun ro‘yxatga olinadigan xonadonlar va turarjoylarning geomanzillari shakllantirildi.

Davlatimiz rahbariga hududlarda bu boradagi ishlarining tayyorgarlik holati yuzasidan hisobot berildi.

Ro‘yxatga olish jarayonlarini yanada takomillashtirish yo‘llari, shu jumladan, raqamli platformalardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish, xorijga ishlash, o‘qish yoki xizmat safariga ketgan fuqarolarni ro‘yxatga olish, uyma-uy va onlayn to‘plangan ma‘lumotlarni integratsiya qilish bo‘yicha aniq yechimlar ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Prezidentimiz aniq, tezkor va ishonchli statistika davlat siyosatini belgilash iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishning muhim omili ekanini qayd etib, sohani strategik yondashuv asosida transformatsiya qilishni davom ettirish topshirig‘ini berdi.

Mutasaddilarga aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA.

PREZIDENT FARMONI:

EKOLOGIK MUAMMOLAR YECHIMIGA DOIR KESKIN CHORALAR

Toshkentda kech kut. Odatda, yilning bu fasli sovuq tushishi, yog‘ingarchiliklar va bulutli havosi bilan ajralib turardi. Ammo so‘nggi yillarda mamlakatimiz poytaxtida ayni davrda o‘zgacha iqlim sharoitlari kuzatilmoqda. Yomg‘ir deyarli yog‘mayapti. Shahar osmonini qoplagan g‘ubor – ko‘zga ko‘rinmas chang zarrachalari (PM2.5, PM10) va boshqa zaharli gazlar inson salomatligiga tahdid solib, jiddiy xavotirlarga sabab bo‘lmoqda.

Munosabat

Bunday zarrachalar va gazlar inson organizmiga kirib, nafas olish yo‘llari kasalliklari, yurak-qon tomir tizimi muammolari, allergik reaksiyalarning kuchayishiga, hatto onkologik xastaliklarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, bolalar,

keksalar va surunkali kasalliklari bor kishilar bunday muhitdan ko‘proq aziyat chekadi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasi uchun xarajatlarning oshishi, mehnat samaradorligining pasayishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar ham havoning

ifloslanishi bilan bog‘liq muammolar sirasiga kiradi.

Vaziyat shunday davom etsa, yaqin kelajakda aholi amin-erkin nafas olishi uchun kislород ballonlariga ehtiyoj sezishi mumkinligi haqidagi prognozlar shunchakita vahima emas, balki aniq faktlarga asoslangan xulosalardir. Nafas olish uchun sun‘iy yordamga muhtojlik, erkin havodan mahrum bo‘lish – bu inson hayoti sifatini keskin pasaytiruvchi, ruhiy va jismoniy zo‘riqishga olib keluvchi holat. U nafaqat insonlar salomatligiga jiddiy zarba beradi, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.



3



8-dekabr – Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

TABIATNI ASRASH – INSONNI, KELAJAKNI ASRASH DEMAKDIR

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati toʻgʻrisidagi ishonchli axborot olish huquqiga egaligi, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi qatʼiy belgilab qoʻyildi.



Shuningdek, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlarni muhofaza qilishni kuchaytirish, qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga koʻtarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablarni belgilash, chiqindilarni toʻplash va olib chiqish xizmatlarini koʻrsatish sohasida toʻlov intizomini mustahkamlash, yer osti suv resurslarini muhofazalashga qaratilgan 10 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi.

Yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi Farmon ham fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini taʼminlashga qaratilgan bilan gʻoyatda ahamiyatlidir.

Binobarin, ushbu hujjatga muvofiq, Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish boʻyicha maxsus komissiya tuzildi. U atmosferava havosi sifatiga salbiy taʼsir qiluvchi moddalar yoʻqon issiqxonalar va boshqa obyektlar faoliyatini vaqtincha toʻxtatadi yoki tugatadi.

Toshkent shahri hokimligi tomonidan esa yoz-kuz mavsumida asosiy yoʻl chetlarida mavjud boʻlgan daraxt va butalarni kunning birinchi yarmida hamda haftada kamida 3-marta yuvish ishlari va tegishli xulosaga asosan biotexnik tadbirlar amalga oshiriladi. Bu esa shahar havosidagi changni kamaytiradi, fotosintez samaradorligini

oshirib, estetik koʻrinishni yaxshilaydi. Zero, bu ishlar shahardagi yashil hududlarni saqlashga qaratilgan boʻlib, toʻgʻri tashkiliy yondashuv elementlariga egadir.

Jismoniy va yuridik shaxslar oʻzlari egalik qilib turgan yer maydoni hududidagi dov-daraxtlarni sugʻorish maqsadida ichimlik suvidan foydalanish vaqtiga qoʻyilgan cheklov bahor va yoz fasllarida bekor qilinadi. Bu, oʻz navbatida, poytaxtimizning sogʻlom hamda ekologik toza shaharga aylanishiga, aholi uchun qulay ekologik muhit yaratishga imkon beradi.

Ushbu hujjatga asosan, poytaxtimizning 33 kilometr uzunligidagi kichik halqa yoʻli boʻylab "yashil koridor" loyihasi amalga oshiriladi. Bu yoʻl boʻylab daraxt, koʻchatlar ekiladi, koʻkalamzor, manzarali koʻchalar, piyodalar va velosiped yoʻlaklari tashkil etiladi. Mazkur loyiha umumiy ekologik muhitni yaxshilash, havo sifatini oshirish, shahar mikroiklimiga ijobiy taʼsir koʻrsatish, aholi uchun dam olish va ekologik joylar yaratishga zamin hozirlashi, shubhasiz.

Tabiatni asrash – bu insonni, kelajakni asrash demak. Asosiy Qonunimiz esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv va ijtimoiy kafolatlarining ishonchli poydevoridir. Zotan, bugun u fuqarolarimizning qulay atrof-muhitga boʻlgan ekologik huquqlarini, mamlakatimizning ekologik xavfsizligi va musaffoligini taʼminlashda mustahkam huquqiy asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Xayrullo GʻAFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Ekologiya va atrof-
muhitni muhofaza qilish masalalari
qoʻmitasi raisi.

NAVQIRON AVLOD YUTUQLARI – MILLIY GʻURUR MANBAI

Kuni kecha Olimpiya shaharchasida Prezident Olimpiadasiga start berildi. Mamlakatimizda ilk bor oʻtkazilayotgan sport oʻyinlari ishtirokchilariga nazar tashlaganimizda, oʻzimizni katta imkoniyatlarga boy boʻlgan yangi voqeilikda ulgʻayayotgan avlod qarshisida koʻrdik.

Aks sado

Bugungi kunda yoshlardan hayotiy zarur narsalar talab etilmoqda: fikrlash egiluvchanligi, raqamli savodxonlik, oʻzini rivojlantirish qobiliyati. Tasavvur qiling, imtihon yoki tanlov oldida turgan bola faqat bir narsani istaydi — uni tinglashlarini va qoʻllab-quvvatlashlarini. Kimdir — ota-ona, oʻqituvchi yoki davlat: "Sen buni uddalaysan", deb aytishini xohlaydi.

Shu nuqtai nazardan aytganda, Prezident Olimpiadasining tantanali ochilishi bilim, mehnat va uzuk-siz rivojlanishga intilish bayrami sifatida qabul qilindi. U Oʻzbekiston yoshlarining ulkan imkoniyatlar dunyosiga ishonch bilan qadam qoʻyishi ramzi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

Davlatimiz rahbarining ochilish marosimidagi ishtiroki tadbirga chuqur tarbiyaviy va ilhomlantiradigan mazmun bagʻishladi. Qatnashchilarning har biri uzoq tayyorgarlik yoʻlini bosib oʻtdi hamda davlatimiz rahbarining shaxsan oʻzi Olimpiadani ochishi ular uchun oʻz mehnatlari qadri, muvaffaqiyatlari muhim va ozurlari qoʻllab-quvvatlashga loyiq ekanining tasdigʻi boʻldi.

Eng qizgʻin lahzada Prezidentimizning yangi avlodning eng isteʼdodli shaxmatchilaridan biri Javohir Sindorovning Jahon kubogidagi gʻalabasini eʼtirof etib, xalqimizni qutlagani boʻldi. Yurt-

boshimizning soʻzlarida nafaqat Javohirning yutuqlaridan faxrlanish, balki bunday yosh isteʼdodlar Oʻzbekistonning kelajagi ekaniga ishonch yaqqol sezilib turdi.

Prezidentimizning yosh shaxmatchiga qoʻngʻiroq qilishi shunchaki eʼtibor belgisi emas. Bu jamiyatning madaniy kodini aks ettiradi, buyerga yoshlarning muvaffaqiyatlari eʼtibordan chetda qolmaydi, ularning yutuqlari milliy gʻururga aylanadi. Yaʼni davlat oʻz ustida ishlayotgan, oʻsayotgan, mamlakatga yangi gʻalabalar olib kelayotganlarni koʻradi va qoʻllab-quvvatlaydi — xoh u shaxmat, xoh fan, xoh matematika, xoh sanʼat boʻlsin.

Bunday lahzalarda har bir yigit-qizda oʻzining saʼy-harakatlari ham eʼtiborga olinishiga ishonch tuygʻusi paydo boʻladi.

Prezident Olimpiadasi shunchaki musobaqa yoki isteʼdodlar tanlovi emasligi, shubhasiz. Bu mamlakatning har bir bola oʻz salohiyatini royogba chiqarishi uchun sharoit yaratishga boʻlgan intilishi mujassam voqea, desak, mubolagʻa emas.

Deputat sifatida men uchun bu shunchaki maʼrifiy tadbir boʻlib qolmaydi, albatta. Bu mamlakat qudrati, haqiqatdan ham, farzandlari qalbidagi yuksalib borayotganidan dalolatdir.

Galiya RAYXANOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

PREZIDENT FARMONI:

EKOLOGIK MUAMMOLAR YECHIMIGA DOIR KESKIN CHORALAR

Shu jihatdan Prezidentimiz tomonidan "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi Farmonning imzolaniishi poytaxtimiz havosini yaxshilash, aholi turmush darajasini oshirish bilan bir qatorda mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini taʼminlashga qaratilgan muhim qadamdir.

Tabiiy va antropogen omillar

Albatta, havo ifloslanishiga mintaqamizning geografik oʻrni katta taʼsir koʻrsatadi. Biz dunyodagi eng katta materik — Yevroosiyaning qoq markazida joylashganmiz. Iqlimimiz — nisbatan quruq. Chang-toʻzon har doim koʻproq va kuchliroq. Bu safargi chang-toʻzon butun mintaqani qamrab olgani ham shundan.

Sinoptiklar maʼlumotlariga koʻra, noyabr oyi boshidan beri Toshkentda yogʻingarchilik hajmi iqlimiy meʼyordan ancha past boʻldi. Bunday holat havodagi mayda zarrachalarning tabiiy yuvilishini toʻxtatadi va ularning uzoq vaqt atmosferada saqlanib turishiga olib keladi. Oʻzbekiston tabiiy jihatdan quruq va yarimquruq iqlim hududida joylashgan boʻlib, BMT ekspertlari mintaqamizni dunyoda arid jarayonlar, yaʼni oʻsimlik qoplamining kamayishi va iqlim ishi taʼsiri ostida tabiiy changlanishning oshishi eng tez kechayotgan makonlardan biri sifatida qayd etgan.

Shu bilan bir qatorda, changning koʻpayishiga shamolning yoʻqligi va havo inversiyasi ham sabab boʻladi. Shamol tezligi past boʻlganda yoki havo inversiyasi hodisasi yuz berganda (sovuq havo qatlami yerga yaqin, issiq havo esa yuqorida boʻlganda) ifloslantiruvchi moddalar shahar ustida toʻplanib qoladi va tarqalib ketmaydi. Ayniqsa, shahar pastlikda joylashgan boʻlib, togʻlar uni oʻrab tursa, bunday holat tez-tez yuzaga keladi.

Biroq antropogen omillardan ham koʻz yumib boʻlmaydi. Soʻnggi yillarda Toshkent shahrida aholi sonining tez surʼatlarda oʻishi, sanoat korxonalarining koʻpayishi, transport vositalari hajmining keskin oshishi va iqlim oʻzgarishlari natijasida ekologik vaziyat jiddiy tashvish uygʻotmoqda. Havo ifloslanishi, changli boʻronlarning tez-tez kuzatilishi, chiqindi muammolari va suv resurslaridan irratsional foydalanilishi shahar aholisining salomatligi va turmush sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Poytaxt havosining ifloslanishiga issiqlik markazlari, avtomobillar oqimi, mazut yoqish, qurilish ishlari va boshqalar sabab boʻlayotgani bor gap.

Odatda, bu bir nechta omillarning oʻzaro birgalikdagi taʼsiri natijasida yuzaga keladi. Xususan, transport vositalari havo ifloslanishining eng katta manbalaridan biridir. Ulardagi yonilgʻi yoqilishi natijasida azot oksidlari, uglerod



oksidi, mayda dispers zarrachalar, uchuvchan organik birikmalar, ozon (yer yuzasidagi), oltingugurt dioksidi (dizel yonilgʻisidan) ajralib chiqadi. Shaharlarda transport tirbandligining koʻpligi bu muammoni yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, agar markazlashgan isitish tizimlari yoki ayrim sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida mazutdan foydalanilisa, bu ham yuqorida sanab oʻtilgan ifloslantiruvchi moddalar, xususan, mayda zarrachalarning koʻpayishiga olib keladi. Sement va kimyo zavodlari, metallurgiya korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlari ham oʻz faoliyati davomida havoga turli xil ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishi mumkin. Yirik qurilish maydonlarida va eski binolarni buzish jarayonida ham katta miqdorda chang va mayda zarrachalar (PM10) havoga koʻtariladi. Bu, ayniqsa, quruq ob-havo sharoitida juda sezilarli boʻladi. Markazlashgan tizimi mavjud boʻlmagan hududlarda aholi uylarini isitish uchun koʻmir, oʻtin yoki boshqa qattiq yoqilgʻilardan foydalanganda ham havoga koʻp miqdorda tutun, chang va oltingugurt dioksidi chiqadi.

Shuningdek, havoning ifloslanishiga chiqindilarning notoʻgʻri boshqarilishi, ularning yoqib yuborilishi, yaqin atrofdagi choʻllar, qurigan koʻllar yoki qishloq xoʻjaligi yerlaridan keluvchi chang-toʻzonlar ham taʼsir koʻrsatadi.

Masalaga kompleks yondashuv

Koʻpincha poytaxt havosining ifloslanishi yuqorida sanab oʻtilgan omillarning barchasi yoki bir nechtasining kombinatsiyasi natijasi boʻladi. Muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv, yaʼni transport harakatlarini ekologik nuqtayi nazardan tartibga solish, sanoat chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, qurilish standartlarini yaxshilash va shaharsozlikni rejalashtirish talab etiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan Farmonning asosiy ahamiyati va maqsadi ham shunda. Ushbu hujjat nafaqat ekologik muammolarni tan olish, balki ularni hal qilish uchun amaliy, kompleks va keskin chora-tadbirlarni joriy etishga qaratilgan.

Farmon markazida, avvalo, inson omili yotadi. Inson salomatligi va hayot sifatini yaxshilash doimo davlatimiz rahbarining eʼtiborida. Hujjat shu maʼnoda, aholiga toza va sogʻlom muhitni taʼminlash orqali kasalliklarning oldini olish, umr koʻrish davomiyligini oshirish va shaharda yashash sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi. Farmonda belgilangan havo, suv va tuproqni ifloslantiruvchi manbalarga qarshi choralar bevosita inson salomatligi himoyasiga yoʻnaltirilgan. Sanoat korxonalarining chiqindilarini kamaytirish, transport harakatini cheklash va qurilishdagi changni bartaraf etish talablari aholining nafas olish yoʻllari

“Havo sifatini yaxshilash bir kunlik yoki birgina tashkilotning vazifasi emas. Bu davlat organlari, mahalliy hokimiyat, korxonalar va har bir fuqaroning birgalikdagi saʼy-harakatlarini talab etuvchi keng koʻlamli ishdir. Toza havo — bu bizning sogʻligʻimiz, farovonligimiz va kelajagimiz garovidir. Atrof-muhitga eʼtiborli boʻlish, energiya tejamonkor texnologiyalardan foydalanish va yashil makonlarni asrab-avaylash orqali barcha uchun munosib va sogʻlom yashash muhitini yaratishimiz mumkin.”

kasalliklari va boshqa ekologik muammolar bilan bogʻliq xavflarni kamaytiradi.

Farmonga koʻra, Toshkent shahri va uning atrofidagi issiqxonalarini tabiiy gaz bilan barqaror taʼminlash boʻyicha takliflar ishlab chiqiladi. 2025-yil 1-dekabrden boshlab Toshkent AYOQSHlarida "AI-80" benzinini sotish toʻxtatiladi. Tigiz vaqtlarda shaharda yuk mashinalarining harakatlanishi cheklanadi. Qurilish obyektlariga havo sifatini oʻlchaydigan stansiya va kameralar oʻrnatiladi. Bundan keyin Toshkentda binolarni qurish loyihalashtirilayotgan payti shamol yoʻnalishi va tezligini inobatga olish talabi qoʻyiladi. "Yashil Toshkent" loyihasi uchun masʼul respublika ishchi guruhi tuziladi. Toshkent shahar oʻrmon xoʻjaligi tashkil etiladi. Eng muhimi, bundan keyin Toshkent shahrida daraxt kesish qarori ovoz berish orqali qabul qilinadi.

Ekologik nazoratni kuchaytirish va masʼuliyatni oshirish maqsadida maxsus komissiyaning tuzilishi va unga keng vakolatlar berilishi ekologik

qonunbuzarliklarga nisbatan keskin choralar koʻrilishidan dalolat beradi. Bu esa ifloslantiruvchi subyektlarning masʼuliyatsizligiga chek qoʻyishga xizmat qiladi.

Toshkent havosidagi zararli moddalar va chang miqdorini keskin kamaytirish Farmonning eng muhim yoʻnalishlaridan biri. Bu borada qator choralar nazarda tutilgan. Sanoat va issiqlik taʼminotida cheklovlar shular jumlasidan. Tabiiy changlanish kuchaygan paytlarda ularning faoliyatini cheklash koʻzda tutiladi.

Transport harakatini cheklash, yuk tashish avttransport vositalari va toq/juft davlat raqamli avtomobillarning harakatini vaqtincha cheklash (elektromobillar bundan mustasno) havoga tashlanadigan zaharli gazlar miqdorini kamaytiradi. Atmosfera havosiga salbiy taʼsir etuvchi moddalar yoqadigan issiqxonalar va boshqa

Kelajak uchun masʼuliyat

Daraxtlar — sayyoramizning "oʻpkasi"dir. Ular fotosintez jarayonida karbonat angidridni yutib, kislorod ishlab chiqaradi, shuningdek, havodagi chang zarralarini, turli zararli gazlarni oʻziga singdirib, havoni tozalaydi. Shaharlarda yashil maydonlar va daraxtzorlarni koʻpaytirish havo ifloslanishini tabiiy ravishda kamaytirishning eng samarali yoʻllaridan biridir. "Yashil makon" umummilliy loyihasi kabi tashabbuslar doirasida koʻchat ekish koʻlamini kengaytirish va ularning parvarishini tizimli yoʻlga qoʻyish, yangi qurilayotgan hududlarda daraxtzorlar va bogʻlar uchun majburiy yer ajratish, mavjud yashil hududlarni muhofaza qilish ham tabiiy muassafoligini asrashda muhim rol oʻynaydi. Farmonda bu masalalarga katta ahamiyat berilgan.

Atrof-muhitga zarar yetkazuvchi sanoat korxonalarining Toshkent shahridan boshqa hududlarga koʻchirilishi shahar ichidagi ekologik bosimni sezilarli darajada yengillashtiradi. Shuningdek, sanoat korxonalari uchun tashlamlarning ruxsat etilgan miqdorini belgilash va buzilish holatlarida chora koʻrish ularning ekologik masʼuliyatini oshiradi.

Havo sifatini yaxshilash bir kunlik yoki birgina tashkilotning vazifasi emas. Bu davlat organlari, mahalliy hokimiyat, korxonalar va har bir fuqaroning birgalikdagi saʼy-harakatlarini talab etuvchi keng koʻlamli ishdir. Toza havo — bu bizning sogʻligʻimiz, farovonligimiz va kelajagimiz garovidir. Atof-muhitga eʼtiborli boʻlish, energiya tejamonkor texnologiyalardan foydalanish va yashil makonlarni asrab-avaylash orqali barcha uchun munosib va sogʻlom yashash muhitini yaratishimiz mumkin.

Bugungi kunda ilandigan har bir harakat ertangi kunimizning, farzandlarimizning toza nafas olishi uchun poydevor boʻladi. Zararli odatlardan voz kechish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish, davlat organlari va jamoat tashkilotlarining ekologik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash har birimizning burchimizdir.

Botir USMONOV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori,
texnika fanlari doktori, professor.

Deputatlar — hududlarda

XALQ MANFAATLARINI TAʼMINLASHDA MASʼULLIK HISSI

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan yaqindan muloqot qilish, ularni oʻylantirayotgan masalalarga yechim topish, amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini oʻrganish maqsadida hududlarda boʻlib, saylovchilar bilan qator uchrashuvlar oʻtkazmoqda. Muloqotlarda asosiy eʼtibor joylardagi mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini koʻrishga qaratilmoqda.

Yosh olimlar va talabalar bilan muloqot

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Adola" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Robaxon Mahmudova boshchiligidagi ishchi guruhning Andijon viloyatidagi oʻrganishlari doirasida tibbiy taʼlim sifati va amaliyot integratsiyasi jarayonlariga eʼtibor qaratildi.

Fraksiya rahbari Andijon davlat tibbiyot instituti faoliyati bilan tanishar ekan, tibbiyot oliygohlari qoshidagi klinikalar talabaning shifokor sifatida shakllanishida hal qiluvchi oʻrin tutishini, nazariy bilimlar bevosita bemor bilan muloqotda, real vaziyatlarda sinovdan oʻtkazilgandagina yosh mutaxassisda kasbiy intuitsiya paydo boʻlishini alohida taʼkidladi.

Ishchi guruh tomonidan bu yerdagi talabalarining ilmiy-jodiy faolligi alohida eʼtirof etildi. Xususan, yosh tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan bolalarda yassiyovqilikning oldini olish uchun maxsus ortopedik poyabzallar, ultrabinafsha nurlar yordamida sterilizatsiya qiluvchi ixcham apparatlar va tashxis qoʻyish jarayonini raqamli tahlil etuvchi "raqamli fonendoskop" kabi loyihalar deputatlarda katta qiziqish uygʻotdi.

Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan anatomik modellar va ijtimoiy tarmoqlardagi interfaol ilmiy platformalar tibbiy taʼlimni raqamlashtirish yoʻlidagi dadil qadamlar sifatida baholandi.

Yosh olimlar va talabalar bilan muloqotda "Adola" SDPning bu boradagi pozitsiyasi qatʼiy bildirilib, iqtidori yoshlarni xalqaro grantlar, stipendiyalar va xorijiy amaliyot dasturlariga keng jalb qilish bugungi kun talabi ekanini, ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan yoshlar yangiliklar jarayonining markazida turishi taʼkidlandi. Bu borada tegishli taklif va tavsiyalar bildirildi.

Xizmat koʻrsatish samaradorligini oshirishga oid takliflar

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Jahongir Shirinov Buxoro viloyatining Olot tumanida boʻlib, qator uchrashuvlar oʻtkazdi, aholi vakillari bilan muloqotlar qildi.

Dastlab tuman tibbiyot birlashmasining ish jarayoni, bemorlarga yaratilgan sharoitlar oʻrganildi. Muloqotlar chogʻida mamlakatimizda tibbiyot sohasida olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar, xizmat narxlarining barqarorligini taʼminlash, kadrlar malakasini oshirish borasidagi chora-tadbirlar haqida maʼlumot berildi.

Suhbat davomida sogʻliqni saqlash sohasida korruptsiyaga qarshi kurashish, mavjud muammolarni bartaraf etish, tibbiyot muassasalarida shaffoflikni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, amaldagi imkoniyatlar va yoʻlga qoʻyilgan yangi tizimlar haqida fikrlar almashildi.

Deputat oʻrganish davomida Davlat xizmatlari markazida ham boʻlib, aholiga koʻrsatilayotgan xizmat sifati, yaratilgan sharoitlar hamda markazda korruptsiyaviy holatlarning oldini olish mexanizmlari bilan yaqindan tanishdi. Muloqot jarayonida xizmat koʻrsatishning ochiqligi va qulayligi boʻyicha takliflar bildirildi.

Shundan soʻng Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi faoliyati oʻrganildi. Mazkur jarayonda tuman boʻyicha bandlik koʻrsatkichlari, boʻsh ish oʻrinlariga aholini joylashtirish jarayonlari, bu borada korruptsiyaning oldini olish choralariga alohida eʼtibor qaratildi. Oʻrganishlar chogʻida faoliyatni yanada takomillashtirish boʻyicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Chortoqliklar masalasi hal boʻlish arafasida

Qonunchilik palatasi deputati Dilnoza Azizovaning Chortoq tumani hokimi hamrohligida Arbagʻish mahallasidan tuman markaziga tortilayotgan 52 km. uzunlikdagi ichimlik suvi loyihasi boʻyicha qilinayotgan ishlar bilan tanishgani bejiz emas. Keyingi paytlarda deputatga aholidan ushbu masalada koʻplab murojaatlar boʻlayotgan edi. 300 mlrd. soʻmlik loyiha ijrosi tuman markazi aholisini uzluksiz va sifatli suv bilan toʻla taʼminlaydi.

"Mahalla yetitilgi" vakillari bilan ham uchrashgan deputat dolzarb ekologik masalalar — chiqindi, daraxtlarni asrash va yashil hududlarni kengaytirish masalalarini muhokama qiladi. Oʻz tadbirkorligini yoʻlga qoʻyish harakatida boʻlgan fuqarolarga yordam berish va bu orqali yangi ish oʻrinlari yaratishga ham eʼtibor qaratildi.

Shuningdek, xalq vakili Prezidentimizning "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi Farmoniga muvofiq ayni paytda atmosfera muassafoligini taʼminlash borasida keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini taʼkidladi. Ushbu masala dolzarb boʻlib, barcha masʼullar, yurtdoshlarimiz va ekofaollar birlashib, ekologiyamiz barqarorligi uchun harakat qilishi zarurligi qayd etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi uchrashuvlari davom etmoqda.

"Xalq soʻzi".

2026-yil 1-sentabrden fuqarolarning oilaviy shajaralari boʻyicha maʼlumotlarni onlayn taqdim etuvchi "Shajara" axborot tizimi joriy etiladi.

МАМЛАКАТ БЎЙЛАБ ЯНГИЛИКЛАР, ВОҚЕАЛАР, ТАФСИЛОТЛАР

«SOHIL BO'YI»DAGI XAZINA

To'qay deganda tabiat va insonning atrofga anchayin xayrixohligi tufayli paydo bo'lgan hudud ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Navoiyda Zarafshon daryosining o'zi Xatirchi, Navbahor, Karmana va Qiziltepa tumanlaridan oqib o'tib, minglab gektar hududlarda to'qayzorlar yaratgan. Mavsumiy yashillik va ayrim biologik turlar uchun maskan bo'lib kelgan bu hududlar qator infeksiya o'choqlariga ham aylangan. Ular yillar davomida o'rganish va zararsizlantirish ishlaridan chetda qolgan. Ayrim hollarda to'qayzorlar ataylab yoqilib, "tartibga keltirib" turilgan.

Imkoniyat

Aslida bu hududlarni o'zlashtirib, sohilga, ekologik muvozanatni saqlagan holda aholi dam oladigan maskanlarga aylantirilishi shu paytgacha hech kimning xayoliga kelmagan, — deydi Navoiy viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'i Zafarjon Azimov. — Uzoq yillar davomida qarovsiz qolgan daryodagi hududlaridan samarali foydalanish ishlari boshlab yuborildi. Xatirchi tumanining "Yangi O'zbekiston" massivida "Sohil bo'yi" loyihasi doirasida dam olish maskani bunyod

etilayotganidan hudud aholisi ham, mehmonlar ham xursand.

Hududda bugungi kunda sohil turizmini rivojlantirish uchun turli zamonaviy dam olish obyektlari qad rostlamoqda.

— Mazkur drayver loyiha uchun 5,9 mlrd. so'm mablag' ajratildi. Daryo qirg'oqlarini mustahkamlash, ko'cha chiroqlari va favvoralar o'rnatish, 1,2 km. uzunlikdagi ko'chani va atrofini obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda, — deydi tuman hokimi o'rinbosari Javlon Chinniqulov. — Kelgusida bu hududga tashrif buyuruvchilar baliq ovlash, miniplyajda quyosh nuridan baha olish, cho'milish, toza havoda,

xushmanzara manzillarda sayr qilish imkoniga ega bo'ladi.

Navbahor tumanining Navbahor mahallasida esa "Sohil bo'yi" loyihasi doirasida yangi dam olish maskanlari, sayilgohlar va sport maydonchalari barpo etilmoqda. Qurilish ishlari "Qiyqim me'mori" xususiy korxonasi tomonidan olib borilmoqda. Loyiha konsepsiyasida muhandislik tarmoqlarini yangilash, ekologik talablarga rioya etish va aholi uchun qulay infratuzilmani yaratish o'z ifodasini topgan.

— Mazkur loyiha nafaqat tuman aholisi, balki mehmonlar uchun ham mazmunli dam olish imkoniyatlarini yaratadi, — deydi shifokor Bobojon G'aflov. — Besh-olti yil burun biror mehmon kelsa, qayerga olib borishni bilmasdik. Endi bunday loyihalar tumanimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyiha to'liq ishga tushgach 200 ga yaqin yangi ish o'rinlari hamda

bir vaqtning o'zida 3000 dan ortiq aholiga xizmat ko'rsatish imkonini yaratiladi.

Albatta, har bir hudud obodligida suv inshootlari, jumladan, ariq va lotoklar, ularning atrofini toza saqlash muhim o'rin tutadi. Navoiy shahridagi "Yoshlik" ko'lining qariyb yigirma yil davomida cho'kindi, balchiq va har xil chiqindilardan tozalanmagani shu davr mobaynida qanchadan-qancha muammolar keltirib chiqarganini tasavvur etish qiyin emas.

— Ushbu suv havzasi yoz jazirasida o'z salqinini berib turgan, — deydi viloyat hokimining axborot masalalari bo'yicha maslahatchisi Shohira Raufboyeva. — Biroq ko'ldagi suvning uzoq yillar davomida almashtirilmagani yaqin atrofning havosiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, ko'l atrofidagi sayilgoh va ko'ngil-ochar maskanlar ham vaqt o'tishi bilan ancha eskirib, bugungi kun talablariga javob bermay qolgandi. Ayni kunda yangi loyiha

asosida "Yoshlik" ko'lini yangilash ishlari olib borilmoqda. Qumgil qoplamalari yangilanib, bog' hududi obodonlashtiriladi. Dam oluvchilar uchun infratuzilmaga ega bo'ladi.

"Sohil bo'yi" loyihasi viloyatning Konimex va Nurota tumanlari hududidagi Aydarko'l sohillarida ham qator istiqbolli loyihalar amalga oshirilishiga turki berdi. Mazkur hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada ko'paytirish maqsadida mehmonxona, restoran, sohil bo'yi plyaji, ayvunchalar, terrasali restoranlar, sport maydonchalari, dam olish zonalar, avtoturargoh, zamonaviy o'tovlar, golf maydonlari, vertolyot qo'nish zonasi, voleybol stadioni, bolalar maydonchalari, kvadrotsikllar yo'lagi barpo etilib, o'nlab kilometrlik ichki yo'llar ta'mirlanmoqda.

Albatta, barcha sohil bo'ylarini birvarakayiga so'lim maskanlarga aylantirish mushkul. Biroq bugun tadbirkorlik subyektlarining ushbu hududlarga qiziqishi ortayotgani yaqin kelajakda "Sohil bo'yi" xizmat ko'rsatish tarmoqlari yanada ravnaq topishi, hududlar jozibadorligi oshishiga zamin hozirlaydi.

Temur ESHBOYEV
("Xalq so'zi").

KO'ZLARGA NUR, QALBLARGA QUVONCH

Ko'z — insonning hayotga oynasi, atrofda go'zalliklarni tanish va his etish imkonini beruvchi beqiyos ne'mat. Shu bois uni asrash, ko'rish qobiliyatini saqlab qolish har bir inson uchun juda muhim. Ko'z to'r pardasi inson ko'rishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Uning yirtilishi yoki zararlanishi chaqnoqlar, qorong'i pardalar, ko'rishda keskin o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi. Bu holatda shifokor yordamini kechiktirish — ko'rishdan mahrum bo'lish xavfini orttiradi.



Salomatlik

Yaqinda Samaradan tashrif buyurgan malakali jarroh Ilya Kazakov Ko'z mikroxirurgiyasi markazining Termiz filiali shifokorlari bilan birgalikda ikki kun davomida o'ndan ortiq bemorlarda aynan shu turdagi murakkab amaliyotlarni muvaffaqiyatli bajardi.

— Maqsadimiz faqat operatsiya o'tkazish emas, balki bilim va tajribamizni bo'lishish, — deydi malakali shifokor Ilya Kazakov. — O'zbekistondagi hamkasblarimning salohiyati yuqori. Birgalikda amalga oshirayotgan ishlarimiz bemorlar sog'lig'iga muhim o'rin tutmoqda.

Termiz filiali shifokorlari uchun bu hamkorlik katta imkoniyat ochdi.

— Filialda vitrektomiya kabi murakkab amaliyotlarni yo'lga qo'yish imkonini yaratildi, — deydi shifokor Azizbek Murodov. — Ilgari bunday operatsiyalar uchun bemorlar poytaxtga borishga majbur edi. Endi esa barchasi o'zimizda amalga oshirilmoqda. Murakkab

amaliyotlar orqali ko'plab bemorlar hayotiga yangi nur kirmoqda.

— Chap ko'zim deyarli ko'rmay qolgandi. Rostini aytam, umidim juda oz edi, — deydi Nurali Normamatov. — Lekin shifokorlar vaqtini ham, mehnatini ham ayamadi. Amaliyotdan keyin ko'z nurim qaytdi. Bu hayotimning ikkinchi nafari bo'ldi.

Filialda jarrohlik bilan birga profilaktika ishlari ham olib borilmoqda. Mutaxassislar kishilarga ko'rishda noto'g'ri o'zgarishlarni sezsa, darhol ko'rikdan o'tishni tavsiya qilmoqda. Termiz filialida amalga oshirilayotgan mazkur ishlar, xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik va zamonaviy uskunalar ko'plab bemorlarga ko'rish qobiliyatini, eng muhimi — umid va ishonchini qaytararmoqda. Ko'z — insonning eng nozik va qimmatli boyligi. Uni asrash esa salomatlikka qo'yilgan muhim qadamdir.

Farhod ESONOV
("Xalq so'zi").

77 YOSHIDA YURTIMIZNI PIYODA KEZGAN OTAXON

Buxorodagi Yetti pir ziyoratgohi G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan, Kogon tumanlarida joylashgan. Ular oralig'idagi masofa 150 kilometr atrofida.

Sayohat

Avtomobilda borilsa, ziyorat amallarini o'tash bilan birga sakkiz-to'qqiz soatga vaqt sarflanadi. Bu masofani Peshku tumani Yangiturmush qishlog'ida yashovchi 77 yoshli Muhammad Qudratov yaqinda 24 kunda yavon bosib o'tdi.

— Muhammad aka viloyat turizm boshqarmasi ko'magida piyoda yurib, muqaddas qadamjolarni ziyorat qildi, — deydi shoira Maxfirat Atoeva. — Yavon yurish ijodkorga ilhom baxsh etadi. Negaki, yurtimizning har giyohi, rangin qiyofasi, qaynoq nafasini ko'ngil ko'zi bilan ko'rmoqning gashli bo'lakcha.

Muhammad Qudratov serqirra ijodkor. U ham Yozuvchilar, ham Jurnalistlar uyushmalari a'zosi. Keyingi o'n yillik umrini piyoda yurt kezhishga, yurtimiz sayyohlik salohiyatini namoyish qilishga bag'ishladi. 2018-yilda respublikamiz viloyatlarini velosipedda sayr etib keldi. Oradan uch yil o'tgach, turmush o'rtog'i Shirin Saidova bilan O'zbekiston fuqarolari yavon sayohat qildi. Olgan taassurotlari asosida



"Vodiylarni yavon kezkanda" deb nomlangan kitob ham yozdi.

— O'shanda "O'zbekiston bo'yab sayohat qil" dasturi doirasidagi safarimiz Andijon viloyatining Xonobodidan boshlangandi, — deya eslaydi Muhammad ota. — Ikkovlon yurtimizning 12 ta viloyati, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasini 100 kunda ziyod vaqt davomida sayru sayohat qilib chiqqanmiz.

Otaxon shu kecha-kunduzda ham piyoda yoki velosipedda yurishni kanda qilmaydi. Keksaligiga qaramay to'rt muchasi sog'lom. Shifokorga qachon "ishi" tushganini eslolmaydi. Aytmoqchi, otaxonning yurtkezarligi, ichki turizm targ'ibotidagi xizmati e'tiborda. U "Mahalla iftixori", "Turizm fidoyisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

ALAN HAYOTINI O'ZGARTIRGAN DARS

Alan Ahmedov o'n bir yoshda. Uning ikkinchi guruh nogironligi bor. Qo'l-oyoq panjalaridagi xastalik tufayli maktabga borolmaydi. Biroq bu uning bilimga va do'stlikka bo'lgan ishtiyoqini to'sib qo'ymagan. Alan tengdoshlari kabi o'rganishni, hayotda o'z o'rnini topishni, do'stlari bilan birga vaqt o'tkazishni orzu qiladi.

Bag'rikenglik

Shu bois sinf rahbari, oliy toifali o'qituvchi Saide Bayramova uning uyida noodatyi dars tashkil qildi. 4-"A" sinf o'quvchilari "Biz — har xilimiz, ammo doimo birgami!" shiori ostida Alan bilan uchrashdi. Bu dars maktabda emas, balki Alanning uyida bo'lib o'tdi. Do'stlari uni yo'qlab bordi, birga muloqot qilishdi.

— Bu mashg'ulotning asosiy maqsadi o'quvchilar orasida mehr-oqibatni mustahkamlashdan iborat, — deydi Saide Bayramova. — Dars davomida bolalar Alanga konsert dasturini taqdim etishdi.



O'zlari tayyorlagan eskizlar va ijodiy ishlarni ko'rsatishdi.

Ustozi esa Pushkinning mashhur heridan parchani yoddan o'qib berdi. Bolalar musiga darsida o'rgangan "Ezgulik yo'lidan yurgil" qo'shig'ini birgalikda ijro etdi. Dars yakunida Alan o'z do'stlaridan sovg'alar, suratlar va shirinliklar qabul qildi. Uyda o'tkazilgan bir kunlik dars Alan hayotini butunlay o'zgartirdi, u atrofida do'stlari va mehribon o'qituvchilari borligini his qildi. Bunday barcha ishtirokchilar ham xursand. Alanning onasi va buvisi o'qituvchilar

Otabek ISROILOV
("Xalq so'zi").

YASHIRIN SABOQLAR ORTIDAGI XATAR

Andijon shahrida yashovchi bir fuqaro o'z xonadonida noqonuniy "hujra" tashkil etib, yigirmaga yaqin bolajonlarga diniy saboq berib kelgani aniqlandi. Uning darslarida yosh jihatdan turlicha bo'lgan o'g'il-qizlar bilimni har xil o'zlashtirgan. Kimdir mavzuni tez yodlasa, boshqasi ortda qolgan. Bunday hollarda "ustoz" xivchin bilan jazolash usulini qo'llagan.

Hushyorlik

Mashg'ulotlar o'tkaziladigan xonaga kuzatuv kamerasi o'rnatilgan bo'lib, fuqaro shu vosita orqali xonadonga kelayotgan kishilarni nazorat qilib turgan. Agar shubhali holatni sezsa, darhol xonadagi muzlatkichni surib, uning ortidagi teshikdan bolalarni yerto'laga tushirib yuborgan. Ularga ovoz chiqarmaslikni utqirgan. Ichki ishlar xodimlari xonadonini tekshirganida, diniy kitoblar orasidan taqablangan adabiyotlar ham topildi. Fuqaro barcha qilmishlarining qonunga zid ekanini bilgan holda faoliyatini davom ettirgan.

94 tasi xonadonlarda tashkil qilingan bo'lib, 592 nafar voyaga yetmagan bola noqonuniy ravishda saboq olgan. 65 ta holatda 354 nafar shaxs yashirin "qiroatxonlik" to'garaklariga qatnashgan, 25 ta holatda esa ijtimoiy tarmoq orqali virtual darslar o'tilgani aniqlangan.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, bunday "hujra"lar faqat qonunbuzarlik emas, balki bolalar ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazadi. Bunday muhitda o'sgan bolalar oiladagi mehr va e'tibor o'rniga qo'rquv va qattiqqo'llikni his qiladi. Bu esa kelgusida ishonchsizlik, qo'rqoqlik va hayotdan chetlashish kabi ruhiy holatlarga olib kelishi mumkin.

— Bugungi kunda Qur'anni o'rganish va diniy saboq olish uchun barcha sharoit yaratilgan, — deydi Andijon shahrida yashovchi Ne'matjon Abdulkarimov. — Masalan, Andijon shahridagi Sayyid Muhyiddin Maxdum nomli o'rta maxsus

diniy bilim yurtida har yili xohlovchilar uchun maxsus kurslar tashkil etiladi. U yerda tajribali ustozlar bolalar va kattalarga islom ta'limotini odob, adolat va ma'naviyat asosida o'rgatadi. Qonuniy ta'lim bilan noqonuniy "hujra" o'rtaqidagi farq osmon bilan yerdek. Qonuniy muassasa bilim, ma'rifatu mehrga tayanadi, noqonuniy hujralar esa o'q'ruv, nafs, pulga qurilgan.

Shuning uchun ota-onalar farzandining qayerda va kimdan ta'lim olayotganiga jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Aks holda bola soxta "ustozlar" ta'siriga tushib, ma'naviy bo'shliqqa yuz tutadi. Bolalar ongida pinhona darslar emas, balki ochiq haqiqatlar, so'p muhit va pok lymon mustahkam bo'lishi lozim. Aks holda, mur'ak qablarda qayta tiklanmas darz qilishi mumkin.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").

Kelgusi yil 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi, 2027-yilda esa 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida jahon chempionati O'zbekistonda o'tkaziladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 10 552 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6